

**ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODI VA MUTAFAKKIR
YASHAGAN IJTIMOIIY-MA'NAVIY DAVR**

Quchqorova Shahodat Ro'ziyevna

O'zbek tili va adabiyoti rus tili va ingliz tili ,

kafedrası o'qituvchisi [Tel: +99890 7443734](tel:+998907443734)

Email: quchqorova.shahodat@bsmi.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola Alisher Navoiyning hayot yo'liga oid ma'lumotlar, uning she'riyatga g'oyat qiziqishi, sharq adabiyotini qunt bilan o'rganligi va unda bolaligidayoq adabiyotga zo'r havas uyg'otganligi haqida.

Калит сўзлар: sharq adabiyot, alloma, mutafakkir, amaldor, tarixiy asar, ramazon oyi, podshoh, turkiy, forsiy, mushoira, taxt, hunarmandchilik, savdo-sotiq, dehqonchilik.

Annotation: This article is about Alisher Navoi's life, his great interest in poetry, his diligent study of Oriental literature, and his great interest in literature as a child.

Keywords: oriental literature, scholar, thinker, official, historical work, month of Ramadan, king, turkish, persian, poet, throne, handicrafts, trade, agriculture.

Alisher Navoiyning hayot yo'liga oid ma'lumotlar, avvalo, mutafakkirning o'z ijod namunalarida, bundan tashqari, zamondoshlari Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond, Xondamir, Zayniddin Vosifiy, Davlatshoh Samarqandiy, Muiniddin Muhammad al-Zamjiy al-Isfizoriy, Abdurahmon Jomiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ijodkorlar asarlarida uchraydi. Xondamirning "Makorim ul-axloq" asarida ma'lumot berilishicha, shoirning tug'ilgan sanasi hijriy 844-yil ramazon oyining 17- kunida bo'lib, tovuq yiliga to'g'ri keladi. Uning otasi G'iyosiddin Muhammad (Amir Temurning Umarshayx ismli o'g'liga nabira bo'lgan shahzoda G'iyosiddin (Sulton Husayn Boyqaroning otasi) dan farqlash uchun Alisherning otasini G'iyosiddin Kichkina deb ataganlar) temuriylar saroyining amaldorlaridan, onasi Kobul amirzodalaridan Shayx Abusaid Changning qizi bo'lgan. Navoiy "Vaqfiya" asarida o'z ota-bobolarinig temuriylar saroyida yuqori mavqeda bo'lganliklari haqida shunday yozadi: "... bu xokisorning ota-bobosi ul hazrat (Sulton Husayn Boyqaro)ning bob ova ajdodi xizmatlarida... ulug' marotibqa sazovor va biyik manosibqa komgor bo'lg'on erdilar". Shoirning bolaligi Shohrux hukmronligining so'nggi yillariga to'g'ri kelgan. U temuriyzodalar, xususan bo'lajak podshoh Husayn Boyqaro bilan birga tarbiyalangan. Navoiy 1445-yilda, ya'ni, 4 yoshida maktabga borib, tez savod chiqarib, turkiy va forsiy tildagi she'rlarni o'qib, yod ola boshlagan. O'zbek tili bilan bir qatorda forsiy tilni ham mukammal egallashga muvaffaq bo'lgan. Yurt shohi Shohrux Mirzo 1447 yil 12 martda vafot etgach, taxt da'vogarlari orasida o'zaro kurash boshlanib ketadi. Mamlakatdagi notinchliklar ko'p kishilarni Xurosondan turli tomonga ko'chib ketishga majbur qildi. Navoiylar oilasi o'z tinchligini ko'zlab, Iroqqa ko'chishga qaror qildi (1449). Taf shahrida Alisher mashhur «Zafarnoma» tarixiy asari muallifi, shoir Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashadi. Mazkur uchrashuv bolada yorqin

taassurot qoldiradi. Keyinchalik, mutafakkir bu haqda o'zining "Majolis un-nafois" hamda "Nasoyim ulmuhabbat" asarlarida ma'lumot keltiradi. Alisherlar oilasi Hirotga, qariyb ikki yil muddat o'tgach, qaytadi. Abulqosim Bobur G'iyosiddin Bahodirni Sabzavor shahriga hokim qilib tayinladi. Navoiy Hirotga qolib o'qishni davom ettirdi. U she'riyatga g'oyat qiziqdi, Sharq adabiyotini qunt bilan o'rgandi. Tog'alari Mirsaid Kobuliy, Muhammad Ali G'aribiylarning yetuk shoir ekanligi, unda bolaligidayoq adabiyotga zo'r havas uyg'otgan edi. G'iyosiddin Bahodir uyida shoirlar tez-tez

to'planishib, mushoira qilishar, adabiyot va san'at haqida uzundan-uzoq suhbatlar qurishardi.

Alisher 3-4 yoshlarida taniqli shoir Qosim Anvorning

Rindem-u oshiqem-u jahonso'z-u jomachok,

Bo davlati g'ami tu zi fikri jahon chi bok

(Mazmuni: Rindmiz, oshiqmiz, jahon o'rtovchi va yoqavayronlarmiz, Sening g'aming turganda dunyo fikridan ne foyda) baytini aytib mehmonlarni hayratga solgan bo'lsa, 10—12 yoshlaridan mustaqil ravishda she'r yoza boshlagan. Navoiy 15 yoshida shoir sifatida mashhur bo'lgan. Turkiy tilda yozgan she'rlariga Navoiy, forsiy zabon she'rlariga esa Foni taxallusini qo'llagan.

Alisher 13—14 yoshlarida otasidan judo bo'ladi. Yosh shoirni Abulqosim Bobur o'z tarbiyasiga oladi, katta badiiy iste'dodi uchun unga alohida e'tibor qaratadi. 1456 yil oktabrda mamlakat poytaxti Hirot dan Mashhadga ko'chiriladi, Abulqosim yosh Alisherni va uning maktabdosh do'sti Husayn Boyqaroni Mashhadga olib ketadi. Abulqosim Bobur 1457 yilning bahorida to'satdan vafot etdi. Navoiy uchun otasining vafot etishi, ko'p o'tmay otasidek yaqin ko'rgan rahnamosi Abulqosim Boburning vafoti og'ir judolik bo'ldi. Shunga qaramay u qat'iyat bilan o'z maqsadi tomon harakat qiladi. Mashhad madrasalaridan birida o'qishini davom ettiradi. Temuriyzoda Husayn Boyqaro esa Marv va Chorjo'y tomonlarga omad qidirib ketadi. Movarounnahr hukmdori Sulton Abu Said Xurosonni egalladi va poytaxtini Samarqanddan Hirotga ko'chiradi. Abu Sayd Husayn Boyqaroning taxtni egallash yo'lidagi birinchi raqibi edi. Alisherlar oilasi oilaviy yaqinliklari bois Husaynning taxtni egallashiga xayrixox edi. Bu albatta, yangi hukmdorga yoqmas edi. O'rtadagi bu vaziyat Alisher Navoiy hayotini murakkablashtirgan. Alisher Navoiy Mashhadga oddiy bir mullavachcha sifatida yashadi. Keyinchalik shoir "Majolis un-nafois" asarida mazkur shaharda bo'lgan davrida mafosil (bo'g'imlardagi og'riq, bod kasali) dardiga giriftor bo'lib, talabalar hujrasida kasal bo'lib yotgan vaziyatini quyidagicha tasvirlaydi:

Sulton Abu Sayd 1469 yil boshlarida Qorabog'da o'z askarlari tomonidan o'ldiriladi. Bunday qulay vaziyatni ko'pdan buyon kutib yurgan Husayn Boyqaro zudlik bilan kelib, Hirot taxtni egallashga muvaffaq bo'ladi. Husayn taxtni egallagach, do'sti Alisher Navoiy xat yo'llab uni Hirotga chaqirtiradi. Alisher Navoiy 1469 yil 14 aprel kuni, ramazon hayiti munosabati bilan uyushtirilgan qabul marosimida o'zining Husayn Boyqaroga yangi yozgan «Hiloliya» qasidasini

taqdim etadi. Shoir hukmdorning taxtga chiqishini yangi oy-hilolga o'xshatadi:

Yangi oy-u iyd iki qullug' ching o'lsun, aylagan

Sen hilol aning otin, bayram bu yerning kunyatin.

Podshoh Alisher Navoiyni muhrdorlik mansabiga tayinlaydi. Husayn Boyqaroning eng xavfli siyosiy raqibi — Yodgor Muhammad Mirzoni tunda qo'lga olishda Navoiy shaxsiy jasorat ko'rsatib jonbozlik qiladi. Ortiqcha soliqlaridan norozi bo'lib, qo'zg'olon ko'targan xalq ommasini tinchitishda adolat va mardonavorlik bilan ish tutadi. Mazkur voqealardan so'ng ma'lum vaqt o'tgach, Husayn Boyqaro hukumatidagi muxrdorlik vazifasiga Alisher Navoiyning roziligi bilan uning samarqandlik do'sti, shoir Shayxim Suhayliy tayin etiladi. Navoiy ko'proq ijodiy ish bilan shug'ullanishni maqsad qilib, saroyda maslahatchi bo'lib qolishni xoxlardi. Ammo, Husayn Boyqaro 1472 yilning fevral oyida uni o'z saroyining bosh vaziri qilib tayinlaydi va unga «Amiri kabir» unvoni topshiriladi. Yangi lavozimga tayinlangan Alisher Navoiy, avvalo, butun kuchini mamlakatda tinchlik va osoyishtalik o'rnatishga bag'ishlaydi. Vaqf ishlarini tartibga solishga kirishdi. Shaharlarda hunarmandchilikni, savdo-sotiqni rivojlantirishga katta e'tibor qaratdi. Natijada, Alisher Navoiy sa'yi harakati bilan qishloqlarda dehqonchilik madaniyati o'sib, shaharlar, xususan Hirot kun sayin obod bo'la boshlaydi:

Kim bor edi boshima ko'p mehnatim,

Yo'q edi bosh qoshig'ali fursatim

(“Hayrat ul-abror”dan)

Olam va odam, ta'lim va tarbiya, ozodligu obodlik kuychisi Alisher Navoiy o'rta asrdagi uyg'onish davrining boshqa ulug' zotlari singari butun hayoti bilan haqiqiy inson qanday bo'lishi lozimligini namoyon etdi. Alloma o'z davridagi nohaqlikka, adolatsizlikka qarshi kurashdi, amaldorlarning o'z vazifalarini suiiste'mol qilishlarini va ta'magirliklarini fosh etdi, ojiz, muhtoj kishilarni o'z himoyasiga olib, ularni qo'llab-quvvatladi. Husayn Boyqaro hukmronlik qilgan, Navoiy hukumatda bosh vazir vazifasini egallagan yillarda hech bir davlatga qarshi bosqinchilik urushi olib borilmadi. Yirik siyosiy arbob Mir Alisher Navoiy madaniyat va san'atning chinakam homiysi sifatida shuhrat topadi. Navoiyning faoliyatida ijtimoiy-siyosiy masalalarni to'g'ri hal etishga intilish, jamiyatdagi barcha ijtimoiy qatlamlarga, barcha qavmlarga bir xil munosabatda bo'lish, hech qaysi birini kamsitmaslik, hammaning manfaatiga barobar xizmat qiladigan jamoat binolarini qurishga alohida e'tibor berish dalzarb masalaga aylana bordi. Tarixchi Xondamirning qayd qilishicha, 80-yillar davomida Alisher Navoiy o'z mablag'lari hisobidan Hirot va mamlakatning boshqa shaharlarida bir necha madrasa, 40 ta rabot, 17 masjid, 10 xonaqoh, 9 hammom, 9 ko'prik, 20 ga yaqin hovuz qurgan yoki ta'mirlatirgan. Hirotidagi «Ixlosiya», «Nizomiya» madrasalari, «Xalosiya» xonaqohi, «Shifoia» tibgohi, Qur'on tilovat qiluvchilarga mo'ljallangan «Dorul-huffoz» binosi, Marvdagi «Xusraviya» madrasasi, Mashhaddagi «Dorulhuffoz» xayriya binosi va boshqa noyob me'morlik yodgorliklari shular jumlasidandir.

Alisher Navoiyning «Majolis un-nafois» asari XVI asrdayoq fors tiliga Faxriy bin Sulton Muhammad Amiriy, Muhammad Qazviniiy hamda Shohali Abduali Nishopuriy tomonidan uch marta tarjima qilingan. «Sab'ai sayyor» asari Navoiyning boshqa tillarga tarjima qilingan ilk badiiy asari sanaladi. 1557 yilda italyan tilida Xristofor Armaniiy tomonidan nashr etilgan «Sarandib shohi uch o'g'lonining ziyorati» asarida Alisher

Navoiyning «Sab' ai sayyor» dostonidagi qoliplovchi hikoyasi — «Bahrom va Dilorom» bayoni beriladi. Mazkur asar fransuz, nemis hamda golland tillariga tarjima qilinib, o'n bir marta nashr qilingan. Bundan tashqari, Gruzin shoiri Sitsishvili XVII asrda Alisher Navoiyning «Sab' ai sayyor» dostonini erkin tarjima qilib, «Yetti go'zal» dostonini shakllantirdi. «Muhokamat ul-lug' atayn» asari XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida turk va tatar tillariga tarjima qilindi. Umuman olganda, ulug' shoir asarlari o'nlab xalqlarning tillariga tarjima qilingan.

So'z mulkining sohibqironi Mir Alisher Navoiy vafot etganidan so'ng o'tgan vaqt davomida uning asarlari forsiy va turkiy xalqlar orasida keng tarqaldi. Mashhur tojik shoirlarining aksariyati, ozarbayjon yozuvchilari Fuzuliy, Kishvari, Mirzo Fatali Oxundov, Sobir, turkman shoirlari Ozodiy, Mahtumquli va Zelili, qozoq yozuvchisi Abay Qo'nonboev, qoralpoq ijodkorlari Berdaq, Ajiniyoz, tatar shoirlari Abdulla To'qay, Hayum Nosiriy va boshqa she'riyat shaydolari Alisher Navoiyga yuqori baho berib, shoir asarlaridan ta'lim oldilar. Bu bilan cheklanib qolmay Navoiyning ba'zi asarlariga nazira yozdilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.Sirojiddinov, D.Yusupova, O.Davlatov. Navoiyshunoslik.-T.:Tamaddun, 2018.-B. 18.
2. O'.Rahmatov. Abadiyat gulshani. 2-kitob,-T.: Sharq, 2016.-B. 177.
3. Sh.Sirojiddinov, D.Yusupova, O.Davlatov. Navoiyshunoslik.-T.:Tamaddun, 2018.-B. 22.
4. Sharafutdinov A. Alisher Navoiy. Toshkent, 1948, 37-bet